

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

TOLIBOV IZZATULLO IBODOVICH

**NODAVLAT NOTIJORAT TASHKIOTLARI HUQUQIY
MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH:
NAZARIYA VA AMALIYOT**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)
Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Tolibov Izzatullo Ibodovich

Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirish:
nazariya va amaliyot 3

Толибов Иззатулло Ибодович

Совершенствование правового статуса негосударственных
некоммерческих организаций: теория и практика 29

Tolibov Izzatullo Ibodovich

Improving the legal status of non-governmental non-profit organizations:
theory and practice 59

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ
List of published works 64

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

TOLIBOV IZZATULLO IBODOVICH

**NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI HUQUQIY
MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH:
NAZARIYA VA AMALIYOT**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Yu239 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyumi) O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti (www.jxu.uz) hamda Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz/) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Tursunov Axtam Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich
yuridik fanlar doktori, professor

Mamatov Xudoyor Teshayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yusupov Sardor Baxodirovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar
malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli ilmiy Kengashning 2024-yil 9-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +998971 230-32-71; faks +99871 230-32-50; jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +99871 230-32-71; faks +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 22-iyulda tarqatildi.

(2024-yil 19-iyuldagi 35-raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

N.I.Xayriyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

M.B.Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda rivojlangan, ochiq, fuqarolik jamiyatini barpo etish tendensiyalari tobora kuchayib borayotganligi sababli fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarini huquqiy maqomini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan samarali, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi to'laqonli ijtimoiy sheriklik munosabatlarida bunday tashkilotlarning vakolatlarini kengaytirish zarurati vujudga kelmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyat hayotidagi o'rni va rolini oshirish, ular faoliyatidagi mavjud muammolarni aniqlash, chuqur tahlil qilish, davlat organlarining ba'zi bir vakolatlarini bosqichma-bosqich ushbu tashkilotlarga o'tkazib borish masalalarini o'rganishni taqozo etmoqda.

Jahonda kechayotgan murakkab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ekologik jarayonlarning asosiy subyektlaridan biri sifatida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini yanada takomillashtirishga qaratilgan tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda tobora chuqurlashib borayotgan globallashuv jarayonida jamiyatdagi muayyan bir ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bunday tashkilotlarning huquqiy maqomini takomillashtirish muhim o'rin egallamoqda. Fuqarolik jamiyati sharoitida "jamoatchilik eshituvi", "jamoatchilik muhokamasi", "jamoatchilik monitoringi", "jamoatchilik ekspertizasi", "jamoatchilik nazorati" kabi demokratik institutlardan samarali foydalanishlari uchun nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimini izlashni talab etadi.

O'zbekistonda "yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish"¹ va "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" g'oyasini amalda ro'yobga chiqarishda "davlat, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy shakldagi tizimli hamda samarali muloqotini yo'lga qo'yish hamda ularning ijtimoiy manfaatlarini kelishilishini ta'minlash"²da nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini takomillashtirish muhim rol o'ynaydi. Bu borada "2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da "fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida ilmiy va ekspert doiralar ishtirokida fundamental va amaliy tadqiqotlar tashkil etish"³ vazifasi qo'yilganligi, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga to'sqinlik qiladigan muammolarni o'rganish va uning samarali yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni., <https://lex.uz/docs/6600413>.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5980-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4789926>.

³"Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori., 2019-yil 30-oktyabr, PQ-4501-son. <https://lex.uz/>.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonuni (1991), O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995), “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi (1996), “Advokatura to‘g‘risida”gi (1996), “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (1997), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1999), “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi (2003), “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi (2007), “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi (2013), “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi (2014), “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to‘g‘risida”gi (2014), “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi (2018), “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi (2018), “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi (2019) qonunlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4473-sonli (2019), “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4501-sonli (2019) qarorlari, shuningdek “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944-sonli (2017), “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5430-sonli (2018), “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5505-sonli (2018), “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5980-sonli (2020), “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-sonli (2021), “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli (2022) farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishiga doir ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari bo‘yicha muayyan ilmiy tadqiqotlar dunyoning ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlarida va oliy o‘quv yurtlarida, jumladan, Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Qonunchilik va qiyosiy huquq instituti (Notijorat tashkilotlar: nazariy va amaliy muammolar) (Rossiya Federatsiyasi), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya

¹Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_8824/, <https://www.inform.kz/ru/npravitel-stvennye-organizacii-yavlyayutsya-neot-emlemoy-chast-yu-grazhdanskogo-obschestvaa2732108.>, <https://www.state.gov/non-governmental-organizations-ngos-in-the-united-states/>, <https://www.cof.org/content/nonprofit-law-france.> “Палата общин Великобритании”, <https://ru.wikipedia.org/>. va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

davlat iqtisodiyot universiteti (Notijorat sektorning imkoniyatlarini oshirishning huquqiy asoslarini rivojlantirish) (Rossiya Federatsiyasi), Al-Forobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti kabi yetakchi ilmiy va oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilmogda. Bunday ilmiy izlanishlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan, jumladan: notijorat tashkilotlarining fuqarolik huquqiy maqomi (notijorat tashkilotlariga fuqarolik huquqiy munosabatlarning faol subyekti sifatida qaralib, notijorat tashkilotlarining fuqarolik holati deganda, ular faoliyatining maqsadi va vazifalari, funksiyalari, yuridik shaxsi, qonuniy huquq va majburiyatlari, ularni amalga oshirish kafolatlari, qonunchilikda nazarda tutilgan barcha vakolatlari ularning huquqiy maqomi, deb tushunilishi bilan bog‘liq ta’rifi ishlab chiqilgan) (Rossiya davlat ijtimoiy universiteti); qonunchilikka nohukumat tashkilotlari tushunchasining yangi shakli (Nohukumat tashkiloti – bu muayyan bir muassis tomonidan jamoat birlashmalari tarzida tashkil etilgan jamoat fondlari, notijorat tashkilotlari, xususiy muassasalar (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy birlashmalar bundan mustasno) taklif etilgan (Qozog‘iston Respublikasining qonunchilik instituti Qozog‘iston); Nodavlat notijorat tashkilotlar xalqaro huquqning subyekti sifatida bunday tashkilotlarni huquqiy maqomini takomillashtirish (AQShning Dyorj Vashington universiteti); Yevropada nodavlat tashkilotlar uchun huquqiy makon tashkil etish muammolari (Yevropa kengashining ilmiy tadqiqotlar markazi); Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviv-huquqiy tadqiqoti (Hacettepe universiteti, Anqara, Turkiya), Nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlatning soliqqa oid siyosatidagi ishtiroki (Maecenata xayriya va fuqarolik jamiyati instituti. Berlin); Nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatiga davlat xizmatchilarining aralashuvi doirasini tadqiq etish masalalari (Yaponiya xalqaro almashinuv markazi.Tokio); Osiyo mamlakatlari (Yaponiya va Janubiy Koreya misolida)da Nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomini rivojlanish tendensiyalari (Songyungvan Universiteti. Janubiy Koreya); Yaroslov Mudriy nomidagi Milliy yuridik universiteti (Ukraina) Ukraina qonunchiligida notijorat tashkilotlar (неприбыльные организации) deb belgilangan tashkilotlar qo‘shimcha qiymat solig‘i, daromad va yuridik shaxslar uchun soliq to‘lashdan ozod etilish, a‘zolar va xayriya tashkilotlaridan olingan barcha moliyalashtirish soliqqa tortilmasligi ilmiy asoslab berilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqotlarda nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomini takomillashtirishning ustivor vazifalari sifatida bunday tashkilotlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi bevosita ishtirokini ta‘minlashning mexanizmlarini rivojlantirish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalari tadqiq etilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha mamlakatimiz hamda xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni va roli, ahamiyati, davlat organlari bilan munosabatlari huquq, tarix hamda siyosiy fanlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Jumladan, Sh.Asyanov, Sh.X.Zulfiqorov, I.Bekov, A.Babadjanov, M.Boydadayev, A.Jalilov, U.Muhammadiyev, Q.Jo‘rayev, E.Xolova, N.Shodiyev, B.Ismoilov, Z.Islomov,

X.Mamatov, G.Malikova, B.Narimanov, Sh.Nazarov, X.Odilqoriyev, D.Rajabov, A.Saidov, S.Saidov, M.Qirg'izboyev, O.Xusanov, D.Xolmanova, I.Tolibov, M.Shamsiyeva, J.Shirinov, D.Ernazarov, Sh.Yakubov, A.Yangiboyevlar¹ ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xorijiy olimlar R.Arutyunyan, T.Arser, A.Abramova, Yu.Batalova, T.Vasilyeva, A.Goncharov, P.Desyatix, R.Dal, V.Zaleskiy, D.Koyen, K.Kumar, G.Kudryadseva, Ye.Kozlova, O.Kutafin, N.Kanishevskiy, R.Kallistratov, A.Klishin, O.Kolomiseva, R.Patnem, A.Skakov, S.Skryabin, A.Tarasov, M.Fuko, F.Fukuyama, V.Fedorov, K.Xafizova, A.Xovrin, A.Shustrov, T.Yurevlarning tadqiqotlarida fuqarolik jamiyatini shakllantirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-institusional tarkiblarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy xulosalari bayon etilgan.

Lekin, "Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirish: nazariya va amaliyot" tahlili Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida ushbu tashkilotlarning o'rni va rolini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan – huquqiy maqomini takomillashtirish masalasi "Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi" ixtisosligi nuqtai nazaridan alohida monografik tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan tashkilot ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari kompleks dasturining "Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirish: nazariya va amaliyot" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirish, uning nazariy va amaliy jihatlarini baholash asosida konseptual taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nodavlat notijorat tashkilotlari tushunchasi, turlari, mohiyati, genezisi va rivojlanish bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi va huquqiy asoslarini takomillashtirish omillarini tahlil qilish;

nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining qonun ijodkorligidagi ishtirokining huquqiy asoslarini rivojlantirish tendensiyalarini o'rganib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

Konstitutsiyaviy huquq tizimida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining aks ettirilishi zaruriyati va shartligini tahlil qilish;

nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining faoliyatiga oid milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy tizimi olingan.

¹Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati qismida ko'rsatilgan.

Tadqiqotning predmetini nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini takomillashtirish bilan bog‘liq huquqiy muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiy va tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish hamda mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Jamoat birlashmalari” tushunchasi bugungi kunning “fuqarolik jamiyati institutlari” tushunchasini to‘liq qamrab olmayotganligi, “Jamoat birlashmalari” nodavlat notijorat tashkilotlarining bitta tashkiliy-huquqiy shakli ekanligi (“Ayni paytgacha fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarida qo‘llanilgan)dan kelib chiqib, qonunchilikdagi “Jamoat birlashmalari” tushunchasini “Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari” tushunchasiga o‘zgartirish zarurati asoslantirilgan;

huquqni qo‘llash amaliyotida milliy va diniy belgilarga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanishi lozimligi asoslangan;

Yangi O‘zbekistondagi tub demokratik islohotlar sharoitida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish va davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda, fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini oshirish, bunda mazkur tashkilotlarni o‘rni va roli, ijtimoiy siyosiy ahamiyati oshirishi zarurati sababli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash lozimligi asoslab berilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati samaradorligini oshirish va ularning jamiyatdagi roli, o‘rni hamda ijtimoiy siyosiy ahamiyatini oshirish lozimligi sababli davlat organlari va mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligini qonunan taqiqlanishi lozimligi asoslantirilgan.

dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtiroki va vakolatlarini kengaytirish zarurati sababli qat’iy amal qiladigan normalarni qonunchilikka tadbiq etish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy qonunchilikda ilk bor “nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari” tushunchasining huquqiy ta’rifi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga birinchi marta “nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari” tushunchasini kiritish taklifi asoslab berilgan;

Konstitutsiyaning XIII-bobi tegishli moddalariga “nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari” tushunchasini kiritish taklifi berilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni kodekslashtirish zaruriyati va ahamiyati

asoslab berilib, mazkur kodeksga kiritilishi lozim bo'lgan huquqiy normalar ishlab chiqilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlariga oid huquqiy normalar ishlab chiqilgan;

Konstitutsiyaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi institutini kiritib, unga konstitutsiyaviy maqom berilishi maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

jamoatchilik nazoratining "jamoatchilik eshituvi", "jamoatchilik ekspertizasi", "jamoatchilik monitoringi" kabi ta'sirchan zamonaviy nazorat shakllarini amaliyotga joriy etish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining Qonunchilik palatasidagi doimiy vakili institutining huquqiy maqomi ishlab chiqilgan;

yangi jamiyat barpo etilishida aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga ko'maklashish maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashkiliy huquqiy maqomini takomillashtirishning ahamiyati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari shu sohadagi ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro huquqning milliy qonunchilik hamda amaliyot bilan qiyosiy tahlili, uning doirasida foydalanilgan nazariy-amaliy, ilmiy xulosalar, xalqaro ilmiy manbalar boshqa fundamental tadqiqotlardan olingan ishonchli ma'lumotlar asosida shakllantirilgan. Shuningdek, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida (2017-2023-yillar) bunday tashkilotlarning son va sifat jihatidan o'sishi, statistik va empirik ma'lumotlar asosida o'rganib chiqilgan. Tadqiqot natijalari milliy va xalqaro nashrlarda e'lon qilingan. Taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy takliflar hamda tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlari huquqiy maqomining takomillashuviga amaliy ta'sir ko'rsatib, mamlakatimizda aholining turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ifoda etadigan, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda qat'iy fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydigan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday tashkilotlar huquqiy maqomining takomillashishi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini, shaffofligini ta'minlash borasida ko'rilayotgan choralardan, jumladan, davlat boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatining faollashuviga, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ijtimoiy sherikchilik salmog'ining oshishiga huquqiy-amaliy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklif, tavsiya va xulosalardan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik

jamiyati boshqa institutlarini tashkil etishni samarali amalga oshirish, shuningdek “Davlat va huquq nazariyasi”, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Ma’muriy huquq”, “Inson huquqlari nazariyasi” fanlarini o‘qitishda, shuningdek boshqa tarmoq fanlarni yanada rivojlantirishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirish: nazariya va amaliyot tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Jamoat birlashmalari” tushunchasini “Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari” tushunchasiga o‘zgartirish lozimligi borasidagi taklifdan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishda foydalanilib, Konstitutsiyaning XIII-bobi nomi “Fuqarolik jamiyati institutlari” degan tahrirda bayon etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 29-martdagi 04/10-09-26-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini bevosita tartibga soluvchi hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga doir qonunchilik hujjatlarida yagona yondoshuvni yuzaga kelishiga xizmat qilgan;

huquqni qo‘llash amaliyotida milliy va diniy belgilarga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanishi lozimligiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 71-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 29-martdagi 04/10-09-26-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini aniq belgilanishi, shuningdek huquqni qo‘llash amaliyotida milliy va diniy belgilarga ko‘ra bunday tashkilotlarning ijtimoiy zararliligi bois ularning faoliyatini huquqiy jihatdan taqiqlanishiga xizmat qilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini, ularning o‘rni va roli, ijtimoiy siyosiy ahamiyati oshirishi maqsadida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash to‘g‘risidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-maydagi “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2023 va 2024-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 192-son qarori 2-bandi birinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Axborot tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2023-yil 18-maydagi 12-15-14-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ular faoliyatining huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish asosiy ustuvor vazifa sifatida qaratilishiga xizmat qilgan;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishga, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi borasidagi takliflardan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan.

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurash va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2023-yil 6-iyundagi 04/2-10/5618-II-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi, davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlashga, ularga jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratishga huquqiy asos yaratgan;

dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtiroki va vakolatlarini kengaytirish uchun qat’iy amal qiladigan normalarni qonunchilikka tadbiq etish borasidagi takliflardan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-maydagi 192-son qarorining ikkinchi bandi ikkinchi xatboshisini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Axborot tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 2023-yil 18-maydagi 12-15-14-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinganligi nodavlat notijorat tashkilotlarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot ishining natijalari 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyada, 3 ta davra suhbatlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 26 ta, jumladan 1 ta monografiya, 1 ta risola, OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan jurnallarda 18 ta maqola shundan 2 maqola xorijiy jurnallarda, 2 ta xalqaro miqyosda va 5 ta maqola Respublika ilmiy-amaliy anjumanlar yakuniga bag‘ishlangan to‘plamda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, o‘n sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 202 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy ta’lim va tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatyasi, e’lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy tahlili**” deb nomlanib, unda bugungi kunda “uchinchi sektor” deb e’tirof etiladigan nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlari, huquqiy tabiati, mamlakatimizda bu sohada to‘plangan milliy tajriba va qonunchilik, shuningdek bir qator rivojlangan demokratik davlatlarning qonunchiligi va amaliyoti qiyosiy tahlil qilingan. Dissertant tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari turlari va o‘ziga xos xususiyatlarining qiyosiy huquqiy tahlili asosida

bu boradagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. Jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ayniqsa ijro hokimiyatining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali va konstruktiv muloqot qilish mexanizmlarini, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq aniq bir masalada o'zaro teng asosda amaliy hamkorlik qilish uchun ijtimoiy maydon yaratishni takomillashtirish maqsadida: hududlardagi nodavlat notijorat tashkilotlarining xalqaro grant loyihalarini amalga oshirishda davlat boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi va uning mexanizmlarini belgilab beradigan normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi va qabul qilinishi lozimligi asoslab berilgan.

Mahalliy va xorijiy olimlar (A.X.Saidov, X.T.Odilqoriyev, M.Qirg'izboyev, S.Saidov, D.Ernazarov, D.Xolmanova, J.Shirinov, Sh.Nazarov, X.Mamatov, I.Tolibov, Sh.Asyanov, M.Sh.Kulikova, M.Abdulin Ye.V.Shakleina, J.Ye.Gudsman,, L.F.Snigirev, O.A.Omelchenko, S.V.Miskin)ning nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomi, siyosiy nazariyalar tizimida ularning tutgan o'rni va roli borasidagi fikr-mulohazalari asosida jamiyatning eng muhim ijtimoiy vazifalarni samarali hal etilishi uchun bunday tashkilotlarning to'laqonli faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar qilingan. Xususan, turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar va aholi qatlamlari manfaatlarini muvozanatli ta'minlash va himoya qilish, dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni hal etish, jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishga ko'maklashish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar alohida o'rin tutishidan kelib chiqib, yangi jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar sharoitida ularning huquqiy maqomini takomillashtirish istiqbollari ochib berilgan.

Tadqiqotchi huquqiy tahlil asosida nodavlat notijorat tashkilotlarning umumiy tavsifini belgilaydigan quyidagi ikkita muhim jihatini alohida ko'rsatib o'tgan: **birinchidan**, tashkiliy-huquqiy shakllaridan, turlaridan qat'iy nazar ixtiyoriylik asosida tashkil etiladi; **ikkinchidan**, foyda (daromad) olishni o'zining asosiy maqsadi deb hisoblamaydi va umumjamiyat, umumdavlat taraqqiyoti uchun foydali, a'zolarining mulkiy va moddiy manfaatlari bo'lmagan, faoliyati asosan jamoaning ma'naviy, madaniy, ma'rifiy va boshqa ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.

Bugungi nodavlat notijorat tashkilotlari tushunchasi uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligi, uning rivojlanishi hatto eramizdan oldingi asrlarga borib taqalib, to'laligicha xalqlarning yashash tarzi va o'ziga xos milliy an'analari bilan chambarchas bog'lanib ketganligiga alohida urg'u qaratilib, qadimiy mahalla instituti misolida ochib berilgan. Shuningdek, mustaqil O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy tabiatini rivojlanishini uch davrga ajratib o'rganilgan: birinchi davr (1991-1995 yillar), ikkinchi davr (1996-2016 yillar) va uchinchi davr (2016-yildan to bugungi kungacha).

Dissertant tomonidan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokini takomillashtirish masalalari tadqiq etilib, O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuniga nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorlikda mavjud muammolarni aniqlash va ularni

tahlil qilish, yechimlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish mexanizmini joriy etish bilan bog'liq normalarni kiritish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, jamoatchilik nazoratining obyektlari bo'lgan davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qat'iy javobgarlik choralarini belgilashni nazarda tutuvchi yangi huquq normalarini kiritishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish va faoliyatining huquqiy asoslari**" deb nomlanib, mazkur bobda nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzish, uni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi qonunchilik hamda milliy amaliyot tahlil etilib, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularni tashkil etishga qo'yiladigan talablar shartli ravishda ikki guruhga ajratib o'rganilgan:

birinchi guruh – nodavlat notijorat tashkilotlarining ko'pchiligiga, xususan: muassislar tomonidan tegishli qarorlarning qabul qilinishi; ular tomonidan ta'sis hujjatlarining tasdiqlanishi; qonunda nazarda tutilgan bir qator majburiyatlarning Ustavda aks ettirilishi; muassislarga qo'yiladigan umumiy talablar; nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq talablar asosida tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari;

ikkinchi guruh – nodavlat notijorat tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda maxsus qonunlar talablari asosida tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari; bu guruhga siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari hamda diniy tashkilotlar kiradi.

Tadqiqotchi mazkur bob doirasida tuzilishi va faoliyat yuritishi alohida qonunlar bilan tartibga solinadigan nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzish, ularni ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi masala eng yirik nodavlat notijorat tashkilotlaridan biri bo'lgan – siyosiy partiyalar misolida tahlil qilgan. Darhaqiqat, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga qaraganda siyosiy partiyalarni tuzishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Siyosiy partiyalarni tuzish, ro'yxatga olish bilan bog'liq ayrim xorijiy mamlakatlar: Qozog'iston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Turkmaniston Respublikalarida siyosiy partiyalarni tuzish tashabbuskorlarining imzosi soniga qo'yiladigan talab mamlakatimiz qonunchiligida belgilangan talab o'rtasidagi farq taqqoslab chiqilgan. Milliy qonunchilikka ko'ra, "siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi".

Qozog'iston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni II-bobi, 6-moddasiga ko'ra, siyosiy partiyani tuzish va uni ro'yxatdan o'tkazish uchun eng kamida mingta Qozog'iston Respublikasining fuqarosi o'zaro bitta partiyaga ixtiyoriy ravishda birlashishi, poytaxt hamda 2-3 respublika ahamiyatiga ega bo'lgan viloyat, shaharlarda ta'sis syezdini o'tkazishlari kerak. Partiyani tuzish bo'yicha tashkiliy qo'mita a'zolari kamida o'n kishidan iborat bo'lishi talab etiladi

va mana shu o'n kishi yangi tashkil etilayotgan siyosiy partiyani ro'yxatdan o'tkazuvchi organga tegishli hujjatlarni tayyorlab topshiradi¹.

Rossiya Federatsiyasining qonunchiligida siyosiy partiyalarni tuzish erkinligi, biron-bir davlat organi yoki mansabdor shaxs ruxsatisiz amalga oshirilishi, siyosiy partiyaning ta'sis syezdida tuzish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Siyosiy partiya ta'sis qurultoyida siyosiy partiyani tuzish, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining kamida yarmida uning mintaqaviy bo'linmalarini tuzish, ustavni qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi². Rossiya Federatsiyasida siyosiy partiyaning ta'sis qurultoyi delegatlari – siyosiy partiyaning asoschilari hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida yangi tuziladigan partiyaga birlashish istagida bo'lgan fuqarolarning imzosi bo'lishi talabi ko'rsatilmagan.

Rossiya qonunchiligida siyosiy partiyani ro'yxatga olish uchun 500 ta imzo kifoya qiladi³. Holbuki, Rossiya Federatsiyasida 146 mln aholi yashaydi. Belarusda siyosiy partiyani ro'yxatga olish uchun 1000 ta imzo yetarli⁴, deb belgilangan.

Boshqa mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda siyosiy partiyalarni tuzish to'g'risidagi talablarni liberallashtirish maqsadida “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasi 1-xatboshisidagi: “Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda)” Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi”⁵ deb belgilangan normani “siyosiy partiyani tuzish uchun kamida *to'rtta* hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida *o'n ming* fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi” deb o'zgartirish taklif etilgan.

Shuningdek, ikkinchi bobda nodavlat notijorat tashkilotlariga oid qonunchilikdagi asosiy tushunchalar va prinsiplar tahlil qilinib, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga 6 ta yangi tushuncha (*Respublika nodavlat notijorat tashkiloti, Hududiy nodavlat notijorat tashkiloti, Xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti, Norezidentlar, Nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonasi, Nodavlat notijorat tashkilotining filiali*)lar hamda 5(besh)ta asosiy prinsiplarni (*qonuniylik, mustaqillik, oshkoralik, ixtiyoriylik, teng huquqlilik*) kiritish, shuningdek mazkur tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga qo'yilgan talablarni soddalashtirish, taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish muddatini kamaytirish taklifi berildi.

Ushbu bobda nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini rivojlantirish masalasi amaliyot va qonunchilik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish, uni davlat

¹Закон Республики Казахстан от 15 июля 2002 года № 344-III «О политических партиях», <https://online.zakon.kz/>.

²Федеральный Закон «О политических партиях», <http://pravo.gov.ru/>.

³O'sha qonun.

⁴Закон Республики Беларусь «О политических партиях», <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=v19403266>.

⁵“Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni., <https://lex.uz/acts/54191>.

ro'yxatidan o'tkazish jarayoni bilan boshlanadi. "Davlat ro'yxatidan o'tkazish" tushunchasi alohida subyekt sifatida bunday tashkilotlarning yuridik shaxs maqomini olishini anglatadi. Chunki, qonunchiligimizda ya'ni, Fuqarolik kodeksining 44-moddasida "Yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi". Bunday tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad nafaqat ularga yuridik shaxs maqomini berish, balki ularning faoliyati o'z ustaviga, shuningdek qonunchilik asosida faoliyat yuritishini ta'minlash hisoblanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari yuridik shaxs maqomini olgandan keyin o'z nomidan faoliyatini amalga oshirishi, mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi, muayyan majburiyatlarni bajarishi, fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lishi, xo'jalik faoliyatini yuritishi, mustaqil balans yoki smetaga ega bo'ladi. Bunday tashkilotlarning davlat ro'yxatidan o'tishi, unga qonun hujjatlari asosida faoliyat yuritish huquqini beradi.

Shuningdek, mazkur bobda nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning huquqiy asoslari yaratilganligi, lekin u bugungi davr talablariga javob bermasligi asoslab berilgan. Masalan, nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilishi shart bo'lgan hujjatlar to'plami nihoyatda ko'p bo'lib, bu hujjatlarni yig'ish bunday tashkilotlarni tuzish istagi bo'lgan tashkilotchilarda ba'zi bir qiyinchiliklarni yoki ortiqcha vaqt sarflashlarini talab etadi. "Nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organi a'zolari har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va joyi, yashash joyi hamda manzilini ko'rsatgan holda ular tomonidan imzolangan ariza"ni keltirib o'tishimiz mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organi a'zolari bir necha kishidan iborat bo'lganida, ularning har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va joyi, yashash joyi va boshqa ma'lumotlarni ko'rsatishga qay darajada zaruriyat bor. Bizning fikrimizcha faqat ro'yxatdan o'tayotgan nodavlat notijorat tashkiloti rahbari to'g'risida to'liq ma'lumotlar taqdim etilishi yetarli bo'ladi. Shuningdek, "joylashgan yeri nodavlat notijorat tashkilotining pochta manzili" to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etishga ham hech qanday zaruriyat yo'q, chunki tashkil etilayotgan nodavlat notijorat tashkilotining ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etiladigan Ustavida ushbu ma'lumot to'liq aks ettiriladi.

Bundan tashqari, "nodavlat notijorat tashkilotini tuzish tashabbuskorlari yoxud uning ta'rischilari to'g'risidagi ma'lumotlar" hamda "tashabbuskor fuqarolarning ro'yxati" bular bir-birini takrorlavchi ma'lumotlar bo'lib hisoblanadi. Bugungi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining yuksak rivojlanganligi sharoitida bu ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ o'zi istagan paytda aniqlashtirib olishi mumkinligini istisno etib bo'lmaydi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5430-sonli farmonida haqli ravishda ko'rsatib o'tilganidek "nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini, ularning faoliyati tartibini belgilovchi qonunchilik normalarida ortiqcha byurokratik talablar va g'ovlar nazarda tutilgan bo'lib, bu normalar eskirgan va zamon

talablariga javob bermaydi”. Yuqoridagilardan kelib chiqib, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur bobda nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish: muammo va yechimi, qonunchilikdagi asosiy tushunchalar, prinsiplari, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi, zaruriyati va o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Bunda ushbu yo‘nalishlarning huquqiy asoslarini rivojlantirish tendensiyalari bir qator olimlarning (A.X.Saidov, M.Xaitbayev, A.Rejabov, M.Axmedshoyeva X.Odilqoriyev, B.Narimanov, M.Mirakulov, I.Bekov, I.Tolibov, Sh.M.Asyanov, M.Sh.Kulikova, A.Isayev, M.Abdulin, O.Utegenov, E.Tulyakov) ilmiy tadqiqotlari asosida tahlil qilingan.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari qonunchiligini kodekslashtirish istiqbollari”** tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda rivojlangan demokratik mamlakatlarning huquqiy tizimida “kodifikatsiya – qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishning eng yuqori shakli, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni chuqur va har tomonlama qayta ishlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yo‘li bilan yangi, majmuiy, tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat yaratish”¹ nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishiga urg‘u qaratilgan. Va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5505-sonli farmonida norma ijodkorligi jarayonidagi mavjud bo‘lgan kamchiliklar turli sohalardagi ijtimoiy munosabatlarni tarqoq holda tartibga solish salbiy amaliyotining davom etishiga olib kelayotganligi, buni bartaraf qilish uchun “tizimlashtirilgan qonunchilik bazasini shakllantirish, amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy jihatdan ta‘minlanishini takomillashtirish” vazifasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari to‘g‘risidagi kodeksini qabul qilish zaruriyatining quyidagi ikkita muhim omili ko‘rsatib o‘tilgan:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4473-sonli “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida O‘zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi kodeksi loyihasini tayyorlash bo‘yicha ishchi guruh tuzish va ishchi guruhning oldiga ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va shakllangan milliy huquqni qo‘llash amaliyoti asosida nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunchilikni kodekslashtirish va tizimlashtirish asosiy vazifa sifatida qo‘yilganligi va hanuzgacha bu vazifaning ijrosi ta‘minlanmaganligi;

ikkinchidan, O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan ayni paytgacha nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati bilan bog‘liq 70 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib,

¹O‘zbekiston Respublikasi Milliy internet portali., Yuridik lug‘at, <https://huquqiyportal.uz/>.

ularning tarqoqligi sohaga oid qonunchilikni qo'llash amaliyotida ba'zi bir qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, huquqiy qarama-qarshilik (kolliziyalar)larni paydo qilib, huquqiy normalarni qo'llashda turlicha talqin qilinishiga sabab bo'layotganligi.

Shulardan kelib chiqib, ushbu bobda O'zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari to'g'risidagi kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish zaruriyati, bu boradagi qonunchilikning hayotiyliigi va xalqchilligini ta'minlaydigan quyidagi afzalliklari asoslab berilgan: normalar o'rtasidagi tafovutlar bo'lmasligini ta'minlaydi; ushbu soha bilan bog'liq huquqni qo'llash amaliyotini osonlashtiradi; tizimlilik, aniqlilik, yaxlitlilik, muayyanlilikni vujudga keltiradi.

Tadqiqot ishida O'zbekiston milliy qonunchiligida ilk marotaba nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tushunchasiga quyidagicha huquqiy ta'rif berilgan: "jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish, shuningdek jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq tashabbuslarni ilgari surish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladigan davlat organlaridan mustaqil faoliyat yuritadigan o'zini o'zi boshqaradigan tashkilotidir".

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Nodavlat notijorat tashkilotlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki**" deb nomlanib, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki amaliyot va qonunchilikning qiyosiy tahlili asosida ochib berilgan. "normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish darajasining pastligi barcha ijtimoiy guruhlarning turli nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ifodalanadigan manfaatlarini chuqur o'rganish hamda inobatga olishga imkon bermayotganligidan"¹ kelib chiqib, "Nodavlat notijorat tashkilotlarining qonun ijodkorligidagi ishtirokining huquqiy asoslarini mustahkamlash tendensiyalari haqida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Xususan, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida jamoatchilik nazoratining shakllari sifatida "jamoatchilik muhokamasi", "jamoatchilik eshituvi", "jamoatchilik monitoringi", "jamoatchilik ekspertizasi" kabi institutlari keltirib o'tilganligi, lekin, jamoatchilik muhokamalari, jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik ekspertizalari samarali tashkil etilishining usul va vositalari, mexanizmlari hali ishlab chiqilmaganligi, qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik manfaatlarini har tomonlama hisobga olish uchun, avvalo "jamoatchilik muhokamasi", "jamoatchilik eshituvi", "jamoatchilik monitoringi", "jamoatchilik

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 4-maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, PF-5430-sonl Farmoni <https://lex.uz/docs/3721649>.

ekspertizasi” kabi institutlarning o‘tkazilishi bilan bog‘liq aniq mexanizmlar yaratilishi kerakligi asoslab berilgan. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida jamoatchilik nazoratining obyekti bo‘lgan davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyekti tarzida nazarda tutilganligi, biroq ushbu muhim norma amaliyotda ishlamayotganligi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida bunday tashkilotlarning qonun ijodkorligida ishtirok etishi bilan bog‘liq biron-bir huquqiy me‘yor aks ettirilmaganligi asoslab berilgan. Ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bir qator takliflar ishlab chiqilgan. Jumladan, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasini quyidagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirish lozimligi asoslab berilgan: *“nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining qonun loyihalari yuzasidan bildirgan taklif va fikr-mulohazalari bo‘yicha davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan asoslantirilgan javobini yuborilishi lozim”*.

Tadqiqotchi mazkur bobda qonun ijodkorligi jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki borasida fikr yuritib, fuqarolik jamiyatining eng katta va muhim institutlaridan biri – siyosiy partiyalar hamda ularning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari faoliyatini chuqur tahlil qilgan. Jumladan, siyosiy partiyalar fraksiyalarining qonun ijodkorligi jarayonidagi faolligini oshirish masalasi hali-hanuz dolzarb bo‘lib qolayotganligiga urg‘u qaratilgan.

Bu borada o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ko‘rsatishicha, “respondentlarning 61,3 foizi Oliy Majlis quyi palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining faolligini bugungi kun talablari darajasida emas deb, ishtirokchilarning atigi 11,8 foizi bu faoliyatni ijobiy deb baholagan. Respondentlarning 20,7 foizi bu borada yetarli axborotga ega emasligini va 5,5 foizi umuman ma‘lumotga ega emasligini bildirganlar. Keltirilgan raqamlar bu xususda jiddiy fikrlashga undaydi. Ayniqsa, 26 foizdan ziyod so‘rov qatnashchilariga fraksiyalar faoliyatiga oid axborot yetib bormayotganligi tashvishli bo‘lib, parlament faoliyatini OAVlarda yoritish borasida jiddiy muammolar borligini ko‘rsatadi”¹. Ushbu sotsiologik so‘rov natijalaridan ham ko‘rinib turganidek, fraksiyalarning qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini to‘laqonli deb baholab bo‘lmaydi. Partiya fraksiyalarining Qonunchilik palatasidagi qonun ijodkorligi jarayonida ishtiroki ko‘lamini kengaytirish uchun “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi Qonunni 9²-modda bilan to‘ldirib, uni quyidagi tahrirda bayon etish taklifi ishlab chiqilgan: “Qonun loyihalarini ishlab chiqishga va muhokama qilishga ko‘maklashish maqsadida Qonunchilik palatasining fraksiyalari huzurida ekspert guruhlarini tuziladi. Ekspert guruhlarini partiya faollari orasidan davlat organlarining ilmiy va ta‘lim muassasalarining, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik

¹ Bekov I., “Siyosiy partiya fraksiyalarining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki” // Yurist axborotnomasi 6-son, 1 jild, Вестник юриста номер 6, выпуск 1 Lawyer herald volume 6, issue 1., 8-14 betlar.

jamiyati boshqa institutlarining tegishli sohalarda ilmiy ish tajribasiga, qonun loyihalarini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lgan malakali mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi”.

Shu bilan birgalikda, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga quyidagi normani kiritish taklif etilgan: “Qonunchilik palatasining yalpi majlisida muhokama qilinadigan qonun loyihalari siyosiy partiyalar fraksiyalarining yig‘ilishlarida dastlabki tarzda ko‘rib chiqilmasdan kun tartibiga kiritilmaydi”.

Mazkur bobning alohida paragrafi nodavlat notijorat tashkilotlarining Qonunchilik palatasidagi doimiy vakili institutining tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki samaradorligini oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etish vazifasi qo‘yilganiga 3 yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan, hanuzgacha bajarilmaganligiga alohida ahamiyat qaratilib, “Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining Qonunchilik palatasidagi doimiy vakili to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, mazkur qonun loyihasida Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining Qonunchilik palatasidagi doimiy vakili mansabdor shaxs bo‘lib, Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining manfaatlarini ifoda etishi va Vakil o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshiradi va u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasiga hisobdor ekanligiga oid huquqiy normalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi “**Fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirish**” deb nomlanib, mazkur bobda O‘zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlarining aks ettirilishi zaruriyati hamda shartlari tahlil qilingan. Buning quyidagi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy omillari borligi ko‘rsatib o‘tilgan:

birinchidan, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari to‘g‘risida umumiy tushuncha “jamoat birlashmasi” tarzida ifodalangan. Lekin, bu tushuncha bugungi kundagi nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining mazmun-mohiyatini to‘laqonli anglatmaydi. Chunki, bu ta’rifda nodavlat notijorat tashkilotlarining juda ko‘plab turlari, jumladan assotsiatsiyalar, jamoat fondlari, homiylik va vasiylik tashkilotlari, advokatlik tashkilotlari, palatalar, ittifoqlar, muassasalar e’tiborga olinmagan;

ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari soni va faoliyatining samaradorligi bugungi kundagiga nisbatan ancha past darajada edi;

uchinchidan, keyingi 5 (besh) yilda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, jamoatchilik boshqaruvida ularning ishtirokini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan 20 dan ortiq

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk marta Davlatimiz rahbarining 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5430-son farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi tuzildi;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil etildi. Jamoatchilik palatasi jamiyat taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadigan jamoatchilik fikrini tizimli o‘rganib borish, aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, ularning yechimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisi palatalariga va Hukumatga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha takliflar kiritib borish, fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlarni so‘z erkinligi, fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqini amalga oshirish, axborot erkinligi kafolatlarini ta‘minlash bo‘yicha muhokamalarga jalb etish hamda mazkur masalalarga oid amaliy takliflar ishlab chiqish singari muhim yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ta‘kidlash lozimki, mazkur takliflarning aksariyati amaliyotga joriy qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Jamoat birlashmalari” deb nomlangan XIII-bobini “Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari” deb o‘zgartirish taklifi ilgari surilgan. Konstitutsiyaning ushbu bobiga yangi modda kiritib, uni quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilgan: “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, jamoat birlashmalari, ijodiy uyushmalar, assotsiatsiyalar, jamoat fondlari, homiylik va vasiylik tashkilotlari, advokatlik tashkilotlari, palatalar, ittifoqlar, muassasalar, diniy tashkilotlar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari sifatida e‘tirof etiladi”.

O‘z navbatida, Konstitutsiyaning 69-, 70-, 71-, 72-moddalarini ishlab chiqishda, dissertant tomonidan ilgari surilgan muhim g‘oyalari o‘z aksini topgan.

Ushbu bobda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi institutiga konstitutsiyaviy maqom berilishi maqsadga muvofiqligi, buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VIII-bobiga alohida modda kiritib, uni quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilgan:

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi Konstitutsiyaviy organ bo‘lib, “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” g‘oyasini amalda ro‘yobga chiqarish, aholining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki ko‘lamini kengaytirish, fuqarolar, jamiyat va davlatning o‘zaro yaqin hamkorligini o‘rnatish, shuningdek davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari

hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini muvofiqlashtiradi”.

Tadqiqotchi tomonidan O‘zbekiston Konstitutsiyasiga taklif etilayotgan mazkur normalar Yangi O‘zbekistonni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini birlashtiruvchi kuch va vosita bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga mustahkam huquqiy asos bo‘ladi.

Shuningdek, dissertatsiyaning ushbu bobida ijtimoiy sheriklik instituti o‘rganilib, bu boradagi ilg‘or xorijiy tajriba asosida unga konstitutsiyaviy maqom berish taklifi ishlab chiqilib, O‘zbekiston Konstitutsiyasining XIII-bobini quyidagi modda bilan to‘ldirish taklif etilgan: “Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlat organlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan barcha dasturlarni, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasida ijtimoiy sheriklik asosida ishtirok etadi.

Davlat organlarining (yoki mansabdor shaxslarining) ijtimoiy sheriklikka monelik qilishi qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi”.

XULOSA

Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

Quyidagilarning mualliflik ta’riflari ishlab chiqilgan:

1. Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish, shuningdek jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq tashabbuslarni ilgari surish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladigan davlat organlaridan mustaqil faoliyat yuritadigan o‘zini o‘zi boshqaradigan tashkilotidir;

2. Xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti – belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti ustavida faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirishi nazarda tutilgan tashkilot. Mazkur tushuncha “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasida “Bosh tashkiloti O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini va filiallari yuridik

shaxslardir” deb belgilangan. Lekin, bu yerda faqat ularning vakolatxonalari va filiallari haqida tushuncha berilgan. Ushbu tushuncha boshqacha talqin qilinmasligi uchun aniq qilib “xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti” deb berilishi taklif etiladi.

3. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi** – davlat, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish hamda ularning ijtimoiy manfaatlari kelishilishini ta‘minlash, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini faollashtirishga hamda davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tuziladigan hamda jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatadigan palata.

4. **“Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” konseptual g‘oyasi** – yangi jamiyatning eng muhim talabi bo‘lgan jamoatchilikning ongu-tafakkuri, dunyoqarashi, amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usining ortib borishi, bugungi kunga munosabati, huquqiy madaniyati yuksalishi uchun ushbu tashkilotlarning huquqiy maqomini takomillashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning eng muhim g‘oyasidir.

5. Amaldagi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soladigan qonunchilikni tahlili natijasida, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, bandlikni ta‘minlash, aholining kambag‘al, kam ta‘minlangan qismini qo‘llab-quvvatlash sohasida ijtimoiy, gumanitar rivojlanishning xususiyatlarini hisobga olgan holda dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokini va vakolatlarini kengaytirish bo‘yicha qat‘iy amal qiladigan normalar ishlab chiqib, qonunchilikka singdirilishi lozim;

6. Atrof muhitni muhofaza qilishni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etishga ko‘maklashish borasida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarni ishlab chiqish jarayonidagi asoslantirilgan takliflarini inobatga olishning shartligi bilan bog‘liq normalarni kiritish maqsadga muvofiq

7. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirishni shartli ravishda uch davrga ajratib ko‘rsatish mumkin:

birinchi davr 1991-1995-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda mamlakatimiz endi mustaqillikka erishgan hali sobiq ittifoq tuzumidagi qarashlar ko‘p o‘zgarmagan, bir so‘z bilan aytganda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati ham tashkiliy-huquqiy nuqtai nazaridan hali yetarli darajada rivojlanmagan davri.

Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy asoslarini takomillashtirishning **ikkinchi davri** 1996-2016-yillar bo‘lib, 20 yillik davrni o‘z ichiga olib, bu davrda qabul qilingan qonunlarda ushbu tashkilotlarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni, ularning turlari, davlat tashkilotlaridan ajralib turadigan farqli jihatlari, davlat organlari bilan o‘zaro aloqalarining chegaralari aniqlashtirilib, ochib berilgan davridir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy asoslari takomillashtirishning **uchinchi davri** yangi bir davr bo‘lib, 2016-yildan to bugungi kungacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu davrda nodavlat notijorat tashkilotlarining mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tom ma‘nodagi demokratik islohotlarga hamohang tarzda faoliyat ko‘rsatishga qaratilgan ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi.

8. O‘zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati yo‘nalishlari tahlili asosida ularni shartli ravishda 5 (besh) ta guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruh – O‘zbekiston aholisi muayyan qatlamlarining ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ularga sharoit yaratishga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan nodavlat notijorat tashkilotlar. Bunday tashkilotlarga, yoshlar, xotin-qizlar, nogironlar yoki shunga o‘xshash boshqa qatlamlarning ijtimoiy manfaatlariga ixtisoslashgan eng muhimi markazda va hududlarda tegishli tuzilmalariga (bo‘limlariga) ega bo‘lgan yirik nodavlat notijorat tashkilotlari misol bo‘la oladi;

ikkinchi guruh – ekologiya, madaniyat, ma‘naviyat, fan, sport va aholi salomatligini saqlashga ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkilotlari. Bularga, “Ekosan” ekologiya va salomatlik xalqaro xayriya jamoat fondi, “Sog‘lom avlod uchun” hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya fondi, O‘zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi, “Ma‘rifat” xalqaro jamiyati, Xalqaro fan va madaniyat jamg‘armasi, Xalqaro “Oltin meros” jamoat fondi, Ibn Sino jamoat fondi, O‘zbekiston mikrobiologiya jamiyati va boshqalar tashkilotlarni kiritish mumkin;

uchinchi guruh – jamiyat a‘zolarining ijtimoiy-siyosiy faolligini o‘rganish yoki ma‘lum bir kasb egalarining manfaatlarini himoya qilish nuqtai-nazaridan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlar. Bunday tashkilotlarga “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi, “Yuksalish” umummilliy harakati, “O‘zbekiston sudbyalar assotsiatsiyasi” “Jurnalistlar” ijodiy uyushmasi, Bastakorlar, Me‘morlar uyushmasi va boshqalarni misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin;

to‘rtinchi guruh – inson huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilishni maqsad qilib tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlar. Misol, Advokatlar palatasi, O‘zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati, “Sen yolg‘iz emassan” Respublika jamoat bolalar fondi, O‘zbekiston xalqaro arbitraj va hakamlik sudlarini rivojlantirish jamoat fondi, “Chernobil” Respublikasi jamoat xayriya fondi, Vatandoshlar jamoat fondi, O‘zbekiston Kasaba Uyushmalari federatsiyasi, O‘zbekiston inson huquqlari “Ezgulik” jamiyati;

beshinchi guruh – mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarini birlashtirib turishni va ularning urf-odat va milliy an‘analarini saqlash, millatlar o‘rtasida totuvlikni ta‘minlashga ko‘maklashishni maqsad qilgan ko‘plab madaniyat markazlari ham tashkiliy-huquqiy nuqtai nazaridan nodavlat notijorat tashkilotlari hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi baynalmilal madaniyat markazi, “O‘zbekiston-Eron” do‘stlik jamiyati, “O‘zbekiston-Gretsiya” do‘stlik jamiyati, “O‘zbekiston-Hindiston” do‘stlik jamiyati, “O‘zbekiston-Yaponiya” do‘stlik jamiyati, “O‘zbekiston-Tojikiston” do‘stlik jamiyati, “O‘zbekiston-Indoneziya” do‘stlik jamiyati va boshqalar.

9. Nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzish, uni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi qonunchilik hamda milliy amaliyotni tahlil etadigan bo‘lsak, nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularni tuzishga qo‘yiladigan talablarni 2 ta guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruh – nodavlat notijorat tashkilotlarining ko‘pchiligiga, chunonchi: muassislar tomonidan tegishli qarorlarning qabul qilinishi; ular tomonidan ta‘sis hujjatlarining tasdiqlanishi; qonunda nazarda tutilgan bir qator majburiyatlarning Ustavda aks ettirilishi; muassislarga qo‘yiladigan umumiy talablar; nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bog‘liq talablar asosida tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari;

ikkinchi guruh – nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda maxsus qonunlar talablari asosida tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari; bu guruhga siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari hamda diniy tashkilotlar kiradi.

10. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil etganimizda amalda faoliyat yuritayotgan NNT larni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruh – ko‘p yillik ish tajribasiga hamda o‘zining hududiy tuzilmalariga ega, tarkibiy-tashkiliy jihatdan yaxshi shakllangan, aholining ma'lum bir qatlami manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda tizimli faoliyat yuritib amaliy natijalarga erishib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari;

ikkinchi guruh – fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, jamoatchilikning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun tashkil etilib, bu borada ba'zi bir natijalarga erishgan, lekin davlat organlari bilan samarali va konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yib ulgurmagan, faoliyatini o‘rtacha qoniqarli deb baholash mumkin bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari;

uchinchi guruh – faoliyatida doimiylik va tizimlilik yo‘q, davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklik yo‘lga qo‘yilmagan, moliyaviy imkoniyatlari cheklangan, o‘zining mavjudligi faktini isbotlay olmaydigan nodavlat notijorat tashkilotlari.

II. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek yangi qonunlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq takliflar:

1. O‘zbekiston Respublikasida Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar ko‘plab qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinishi, shuningdek bu boradagi qonunchilikning hayotiyliigi va xalqchilligini ta’minlash, normalar o‘rtasidagi tafovutlar hamda kolliziyani bartaraf etish, sohadagi huquqni qo‘llash amaliyotini osonlashtirish va tizimlilik, aniqlilik, yaxlitlilik, muayyanlilikni vujudga keltirish uchun *O‘zbekiston Respublikasining Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari to‘g‘risidagi kodeksini* qabul qilish taklif etiladi. (dissertatsiya ishiga 1-ilova).

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasini quyidagi uchinchi va to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlat organlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan barcha dasturlarni, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasida ijtimoiy sheriklik asosida ishtirok etadi.”

“Davlat organlarining (yoki mansabdor shaxslarining) ijtimoiy sheriklikka monelik qilishi qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.”

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII-bobini 72¹-modda bilan to‘ldirish va uni quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

- *“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi Konstitutsiyaviy organ bo‘lib, “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” g‘oyasini amalda ro‘yobga chiqarish, aholining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki ko‘lamini kengaytirish, fuqarolar, jamiyat va davlatning o‘zaro yaqin hamkorligini*

o‘rnatish, shuningdek davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini muvofiqlashtiradi”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning XIII-bobiga quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish taklif etiladi:

- “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlangan bob nomini “*Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari*” deb o‘zgartirish;

- ushbu bobdagi tegishli moddalar matnidan “jamoat birlashmalari” tushunchasi o‘rniga “*nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari*” tushunchasini kiritish.

Ushbu bobning 71-moddasi matnidan “milliy” so‘zini hamda “jamoat birlashmalarining” iborasini chiqarib quyidagi tahrirda bayon etish taklif etildi:

“Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi”.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlat organlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan barcha dasturlarni, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasida ijtimoiy sheriklik asosida ishtirok etadi.

Davlat organlarining (yoki mansabdor shaxslarining) ijtimoiy sheriklikka monelik qilishi qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi”.

5. “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasi birinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi: “*Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida to‘rtta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo‘lgan kamida o‘n ming fuqaroning imzosi bo‘lishi talab etiladi*”;

- ushbu moddaning ikkinchi xatboshisini quyidagi tahrirda o‘zgartirish taklif etiladi: “*siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida yigirma besh kishidan iborat bo‘lishi, ular partiya ta‘sis hujjatlarini tayyorlash, a‘zolar tarkibini shakllantirish hamda ta‘sis syezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitani tuzishlari lozim*”.

Ushbu Qonunning 12-moddasini quyidagi yangi xatboshi bilan to‘ldirish taklif etiladi: “*davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, ularning mansabdor shaxslariga so‘rovlar yuborish*”;

6. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini 2¹-modda bilan to‘ldirib, quyidagi yangi asosiy tushunchalarni kiritish taklif etiladi:

Respublika nodavlat notijorat tashkiloti - faoliyatini O‘zbekistonning barcha ma‘muriy hududiy birliklarida olib boradigan hamda beshtadan kam bo‘lmagan

ma'muriy-hududiy birlik (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar)da vakolatxona yoki filialiga ega bo'lgan tashkilot.

Hududiy nodavlat notijorat tashkiloti – faoliyati uning ustaviga muvofiq bitta ma'muriy-hududiy birlik (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahri) hududida olib boriladigan tashkilot.

Xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti – belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti ustavida faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirishi nazarda tutilgan tashkilot.

Norezidentlar – barcha xorijiy mamlakatlar, xalqaro va xorijiy tashkilotlar yoki chet davlatlarning fuqarolari va yuridik shaxslari, chet davlatlarda doimiy istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoxud ularning topshirig'iga binoan pul mablag'lari va mol-mulk beruvchi hamda ularning nomidan harakat qiluvchi boshqa shaxslar.

Nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonasi – nodavlat notijorat tashkilotining manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi uning doimiy asosda ishlaydigan rahbar organi joylashgan yerdan tashqarida joylashgan alohida bo'linmasi.

Nodavlat notijorat tashkilotining filiali – nodavlat notijorat tashkilotining vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan, vakolatxona vazifalarini amalga oshiruvchi uning doimiy asosda ishlaydigan, rahbar organi joylashgan yerdan tashqarida joylashgan alohida bo'linmasi.

- ushbu qonunni 5¹-modda bilan to'ldirib, unda quyidagi asosiy prinsiplarni kiritish: qonuniylik, mustaqillik, oshkoralik, ixtiyoriylik, teng huquqlilik;

- ushbu qonunning 7-moddasiga “o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalashda qonunlarni takomillashtirish jarayonida Qonunchilik palatasidagi nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining doimiy vakili orqali ishtirok etishga” normasini kiritish;

- ushbu Qonunning 22-moddasi ikkinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish: mazkur nodavlat notijorat tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va joyi, yashash joyi hamda manzilini ko'rsatgan holda u tomonidan imzolangan ariza;

- ushbu Qonunning 22-moddasi oltinchi va sakkinchi xatboshisini chiqarish;

- ushbu Qonunning 23-moddasidagi “bir oylik muddat ichida” deb belgilangan muddatni liberallashtirib “o'n besh kun ichida” deb o'zgartirish.

7. “O'zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to'g'risida”gi qonunning 11-moddasi nomini “Jamoat birlashmalarini ro'yxatga olish” tahririda o'zgartirish.

8. “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonun qabul qilinishi taklif etiladi (dissertatsiya ishiga 2-ilova).

9. “Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining Qonunchilik palatasidagi doimiy vakili to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishi taklif etiladi (dissertatsiya ishiga 3-ilova)

10. “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasini quyidagi to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirish taklif etiladi:

“davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarga nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik

jamiyatining boshqa institutlari tomonidan bildirilgan takliflar inobatga olinmaganda asoslantirilgan javobini yuborishi shart”.

11. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi Qonunga 9²-moddani kiritib, uni quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“Qonun loyihalarini ishlab chiqishga va muhokama qilishga ko‘maklashish maqsadida Qonunchilik palatasining fraksiyalari huzurida ekspert guruhlarini tuziladi.

Ekspert guruhlarini partiya faollari orasidan davlat organlarining, ilmiy va ta‘lim muassasalarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining tegishli sohalarda ilmiy ish tajribasiga, qonun loyihalarini tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan malakali mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi.

Qonunchilik palatasining fraksiyalari huzurida ekspert guruhlarini shakllantirish va ularning faoliyati tartibi siyosiy partiyalar tegishli organlari tomonidan tasdiqlanadigan Nizom bilan belgilanadi”;

- ushbu qonunning 10-moddasiga quyidagi normani kiritish taklif etiladi: “Qonunchilik palatasining yalpi majlisida muhokama qilinadigan qonun loyihalarini siyosiy partiyalar fraksiyalarining yig‘ilishlarida dastlabki tarzda ko‘rib chiqilmasdan kun tartibiga kiritilmaydi”.

III. O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirishning institutsional mexanizmlarini rivojlantirishga oid tavsiyalar:

1. Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqiy maqomini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalarini ishlab chiqishda keng jamoatchilik, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtirokini kengaytirish.

2. Hududlardagi davlat organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini yuzasidan “jamoatchilik muhokamasi”, “jamoatchilik eshituvi”, “jamoatchilik monitoringi”, “jamoatchilik ekspertizasi” kabi institutlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ko‘rish.

3. Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining Qonunchilik palatasidagi doimiy vakili instituti faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari faoliyatini takomillashtirish.

5. Qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining davlat organlari bilan ijtimoiy sherikligini yanada rivojlantirish.

6. Qonun loyihalarini, shuningdek hududlarni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqiladigan Dasturlarni ishlab chiqishga va muhokama qilishga ko‘maklashish maqsadida Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyalari, mahalliy Kengashlardagi deputatlik birlashmalari huzurida ekspert guruhlarini tuzish.

7. Mahalliy kengashlarda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlari bilan hamkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalarni tashkil qilish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ВЫСШАЯ ШКОЛА СУДЕЙ ПРИ ВЫСШЕМ СУДЕЙСКОМ СОВЕТЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

ТОЛИБОВ ИЗЗАТУЛЛО ИБОДОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО СТАТУСА
НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**12.00.02. – Конституционное право. Административное право.
Финансовое и таможенное право**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (DSc)**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.2.DSc/Yu239.

Диссертация выполнена в Высшей школе судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.jxu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Турсунов Ахтам Саломович доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Зулфикоров Шерзод Хуррамович доктор юридических наук, профессор Маматов Худоёр Тешаевич доктор юридических наук, профессор Юсупов Сардор Баходирович доктор юридических наук, доцент
Ведущая организация:	Центр повышения квалификации юристов при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 9 августа 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 по присуждению ученых степеней при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан (адрес: 100211, Ташкентская обл. Зангиатинский район, поселок Чорсу. Тел: 998971 230-32-71; факс 99871 230-32-50 jxu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (зарегистрирован за № _____) (адрес: 100211, Ташкентская обл. Зангиатинский район, поселок Чорсу. Тел: 998971 230-32-71; факс 99871 230-32-50).

Автореферат диссертации разослан 22 июля 2024 года.

(реестр протокола рассылки №35 от 19 июля 2024 года)

М.Х. Рустамбаев
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней, доктор
юридических наук, профессор

Н.И. Хайриев
Научный секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, доктор
юридических наук, профессор

М.Б. Усмонов
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор юридических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в связи с усилением тенденций построения развитого, открытого, гражданского общества особое внимание уделяется совершенствованию правового статуса неправительственных некоммерческих организаций, являющихся одним из важнейших институтов гражданского общества. В настоящее время возникает необходимость установления эффективного, действенного общественного контроля над органами государственной власти и управления, расширения полномочий таких организаций в полноценных отношениях социального партнерства между государственными органами и неправительственными некоммерческими организациями. Повышение роли и места неправительственных некоммерческих организаций в жизни общества требует выявления и глубокого анализа существующих проблем в их деятельности, изучения вопросов поэтапной передачи некоторых полномочий государственных органов этим организациям.

В мире в качестве одного из основных субъектов проходящих сложных социально-политических и экологических процессов, проводятся системные научные исследования, направленные на дальнейшее совершенствование правового статуса неправительственных некоммерческих организаций. Вместе с тем, в условиях все более углубляющегося процесса глобализации важное место занимает совершенствование правового статуса таких организаций, ставящих своей целью защиту интересов определенных социальных слоев общества. В условиях гражданского общества эффективное использование таких демократических институтов, как «общественные слушания», «общественное обсуждение», «общественный мониторинг», «общественная экспертиза», «общественный контроль», требует поиска научно обоснованного решения проблем, связанных с совершенствованием правового статуса неправительственных некоммерческих организаций.

В Узбекистане в реализации идеи «в обновленных конституционно-правовых условиях совершенствование основных направлений развития страны и выведения осуществляемых широкомасштабных реформ на новый этап»¹ и практического воплощения концепции «Общество – инициатор реформ» важную роль играет совершенствование правового статуса неправительственных некоммерческих организаций в «налаживании современной формы системного и эффективного диалога, объединяющего усилия государства, граждан и институтов гражданского общества, направленные на дальнейшее ускоренное и всестороннее развитие страны, а также обеспечение согласованности их социальных интересов»². В этом плане актуальное значение приобретает изучение проблем, препятствующих деятельности неправительственных некоммерческих организаций, и

¹ Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии «Узбекистан – 2030»», № УП-158, <https://lex.uz/ru/docs/6600404>.

² Указ Президента Республики Узбекистан «О создании Общественной палаты при Президенте Республики Узбекистан» от 16 апреля 2020 года №УП-5980. <https://lex.uz/docs/4789930>.

нахождение эффективного решения, поставленная в «Концепции развития гражданского общества на 2021-2025 годы» задача «организации фундаментальных и прикладных исследований с участием научных и экспертных кругов в сфере развития гражданского общества»¹.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени способствует выполнению задач, определенных в Конституции Республики Узбекистан, Законах «Об общественных объединениях в Республике Узбекистан» (1991), Гражданском кодексе Республики Узбекистан (1995), «О политических партиях» (1996), «Об адвокатуре» (1996), «О средствах массовой информации» (1997), «О негосударственных некоммерческих организациях» (1999), «Об общественных фондах» (2003), «О гарантиях деятельности негосударственных некоммерческих организаций» (2007), «Об органах самоуправления граждан» (2013), «О социальном партнерстве» (2014), «Об открытости деятельности органов государственной власти и управления» (2014), «Об общественном контроле» (2018), «О выборах председателя схода граждан» (2018), «О профессиональных союзах» (2019), а также Постановлениях Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по повышению эффективности общественного контроля за проводимыми реформами в социально-экономической сфере, а также активности граждан в осуществлении демократических преобразований в стране» №ПП-4473 (2019), «О мерах по поддержке деятельности Центра развития гражданского общества» №ПП-4501 (2019), Указах «О мерах по дальнейшему совершенствованию института махалли» №УП-4944 (2017), «О мерах по коренному повышению роли институтов гражданского общества в процессе демократического обновления страны» №УП-5430 (2018), «Об утверждении Концепции совершенствования нормотворческой деятельности» №УП-5505 (2018), «О создании Общественной палаты при Президенте Республики Узбекистан» №УП-5980 (2020), «Об утверждении Концепции развития гражданского общества в 2021-2025 годах» №УП-6181 (2021) и «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» №УП-60 (2022), а также в других нормативно-правовых актах в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Определенные научные исследования по теоретическим и практическим

¹ Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по поддержке деятельности Центра развития гражданского общества» от 30 октября 2019 года №УП-4501. <https://lex.uz/ru/docs/4572955>.

² Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_8824/, <https://www.inform.kz/ru/nepravitel-stvennye-organizacii-yavlyayutsya-neot-emlemoy-chast-yu-grazhdanskogo-obschestvaa2732108.>, <https://www.state.gov/non-governmental-organizations-ngos-in-the->

